XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2023 - yil 30 - dekabr VI-82-130-8-111-K/23 Denov tuman hokimligi

Denov tumanning 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-81-232-8-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Denov tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ- 886-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-81-232-8-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Denov tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 168 002,5 mln.so‘m, xarajatlari 313 718,0 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 145 715,5 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Denov tumanning mahalliy budjet mablag‘larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga viloyat mahalliy budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 788,6 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli tasdiqlangan budjeti umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Denov tuman budjeti ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetning zaxira jamg‘armasi miqdoriga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan qat’iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari,tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq taqsimlansin.

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

Yig‘imlar.

b) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar;

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

(har bir soliq turi bo‘yicha ajratmalar normativi ko‘rsatiladi)

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i X.Primov, tuman Davlat soliq inspeksiyasi B.Xaydarov tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Xaydarov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Xaydarov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (T.Ismoilov) 2023-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini

hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Xaydarov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Denov tumani bo‘limi tuman davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Tuman Kambag‘allikni qisqartish va bandlik bo‘limi (I.Ismoilov), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini

samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi, tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Xaydarov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov) Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (T.Abdumurodov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Xaydarov), tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari

bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Tuman ichki ishlar bo‘limi (G‘.Xo‘jamqulov), tuman Davlat xizmatlari agentligi (O.Xolmirzayev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

23. Tuman hokimligiga:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 10 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

24. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

26. Mazkur qaror “Chag‘oniyon” va “Denov ovozi ”gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi o'rinbosari **A.Narzullayev**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-130-8-111-K/23-son qaroriga
1-ilova

Denov tumanining 2024-yildagi mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
Mahalliy soliq va tushumlar		**168 002 500,0**
1	Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	13 124 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	37 875 000,0
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	4 138 000,0
4	Aksiz solig‘i, jami	49 163 000,0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*49 163 000,0*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 656 000,0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 735 000,0
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	8 634 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	27 679 000,0
9	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	50 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 748 500,0
11	Ijara to‘lovi	200 000,0
12	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushum	0,0
II.	**Viloyat budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**145 715 473,0**
Daromadlar hammasi		**313 717 973,0**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-130-8-111-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Denov tumani budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**313 717 973,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**313 717 973,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1.	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining tashkilotlariga**	**33 116 573,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	33 116 573,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Obodonlashtirish boshqarmasini saqlash xarajatlariga**	**16 860 497,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 860 497,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasining tashkilotlariga**	**163 426 265,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	163 426 265,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Yoshlar agentligini saqlash xarajatlari**	**8 486 364,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 486 364,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Madaniyat boshqarmasining tashkilotlariga**	**5 804 210,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 804 210,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Sport boshqarmasi tashkilotlariga**	**9 707 730,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 707 730,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

7.	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining tashkilotlariga**	**558 026,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	558 026,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Irrigatsiya tizimidagi tashkilotlariga**	**1 991 764,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 991 764,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Veterinariya boshqarmasining tashkilotlariga**	**3 160 569,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 160 569,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining tashkilotlari**	**2 451 521,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 451 521,0
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tashkilotlariga**	**1 727 748,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 727 748,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12.	**Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlariga**	**15 927 525,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 138 965,0
	zahira jamg‘armasi	2 788 560,0
13.	**Xalk deputatlari Kengashi kotibiyati**	**228 216,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	228 216,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14.	**Soliq qo‘mitasining xududiy organlarini saqlash xarajatlariga**	**6 400 657,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 400 657,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15.	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**4 924 858,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 924 858,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

16.	**Ko‘niktirish markaziga va Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» xarajatlariga**	**154 827,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	154 827,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17.	**Oila va xotin qizlar bo‘limi xarajatlariga**	**5 938 317,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 938 317,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18.	**Xalk kabulxonasi xarajatlariga**	**139 247,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	139 247,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19.	**Axborot kutubxona markazi xarajatlariga**	**591 611,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	591 611,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga**	**32 121 448,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	32 121 448,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Denov tuman Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-130-8-111-K/23-son qaroriga
3-ilova

Soliqlar va yig‘imlardan Denov tuman mahalliy budjetiga 2024-yil uchun ajratmalar me’yori*

Foiz hisobida

№	Shahar va tuman lar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadi gan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismo niy shaxslardan olinadi gan yer solig‘i	Jismo niy shaxslardan olinadi gan mol-mulk solig‘i	Jismo niy shaxslardan olinadi gan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultiril gan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslardan olinadi gan yer solig‘i	Ijara to‘lovi	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar
1	Denov tumani	100	100	100	100	30	50	100	100	100	50	100	50	50

Izoh: Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-130-8-111-K/23-son qaroriga
4-ilova

Denov tuman mahalliy budjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**168 002 500,0**	**313 717 973,0**
Denov tumani	**168 002 500**	**313 717 973**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-130-8-111-K/23-son qaroriga
5-ilova

Denov tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	**shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**
JAMI	**145 715 473,0**	**71 002 606,0**
shundan		
Denov tumani	145 715 473,0	71 002 606,0

***tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-130-8-111-K/23-son qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy budjetida 2024-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**1 563 900,0**
	shundan	
1	Denov tumani	**1 563 900,0**